b) turizm xizmatlarini taklif etuvchilar va manfaatdor tomonlarning qarashlari hamda amaliyotlarini shakllantirish;

c) destinatsiyalar va mahalliy hududlarni rivojlantirish va boshqarish jarayonlariga ta'sir etish.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida U. Mamadaliyev turizm infratuzilmasi, kadrlar tayyorlash, marketing strategiyalari va xalqaro bozorlarga chiqish bilan bogʻliq masalalarni, shuningdek ekologik, qishloq va gastronomik turizm yoʻnalishlari orqali turoperatorlik sohasini rivojlantirish istiqbollarini oʻrgangan. Uning fikricha, turoperatorlik xizmatlari sifatini oshirish, ularni jahon bozorida samarali targʻib qilish hamda yangi turizm yoʻnalishlarini rivojlantirish orqali Oʻzbekiston xalqaro turizm markazi sifatida oʻz mavqeini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon nafaqat turizm sohasining, balki mamlakat iqtisodiyotining ham barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi[8].

---

2 Koutoulas D., Tsartas P., Papatheodorou A. hamda Prountzou E. tomonidan 2009-yilda chop etilgan *"Understanding the Tour Operators' Point of View for Effectively Marketing a Tourist Destination: The Case of Athens"* nomli tadqiqotda esa turoperatorlarning turistik manzilni samarali targʻib qilish borasidagi qarashlari, ustuvorliklari va marketing yondashuvlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Ushbu izlanish *Annals of Tourism Research* jurnalining 9-jildida, 65–77-betlarda chop etilgan boʻlib, turoperatorlar strategik qarorlarining bozor tendensiyalari bilan oʻzaro bogʻliqligini ilmiy asosda ochib beradi.

3 Gorbuntsova, T., Dobson, S., & Palmer, N. (2018). Rural entrepreneurial space and identity: A study of local tour operators and 'the Nenets' indigenous reindeer herders. The International Journal of Entrepreneurship and Innovation, 19(4), 261–272. Novelli, M., & Hellwig, A. (2011). The UN Millennium Development Goals, tourism and development: The tour operators' perspective. Current Issues in Tourism, 14(3), 205–220.

4 Sheldon, P. J. (1986). The Tour Operator Industry: An Analysis. Annals of Tourism Research, 13(3), 349–365.
Dale, C. (2000). The UK Tour-Operating Industry: A Competitive Analysis. Journal of Vacation Marketing, 6(4), 357–367.
Ioannides, D. (1998). Tour Operators: The Gatekeepers of Tourism. In The Economic Geography of the Tourist Industry (pp. 155–174). Routledge.
Aguiló, E., Alegre, J., & Sard, M. (2003). Examining the Market Structure of the German and UK Tour Operating Industries Through an Analysis of Package Holiday Prices. Tourism Economics, 9(3), 255–278.
Goffi, G., Masiero, L., & Pencarelli, T. (2018). Rethinking Sustainability in the Tour-Operating Industry: Worldwide Survey of Current Attitudes and Behaviors. Journal of Cleaner Production, 183, 172–182.
Collins, S., Sweeney, A. E., & Geen, A. G. (1994). Training for the UK Tour Operating Industry: Advancing Current Practice. Tourism Management, 15(1), 5–8.

5 Khairat, G., & Maher, A. (2012). Integrating Sustainability into Tour Operator Business: An Innovative Approach in Sustainable Tourism. Tourismos, 7(1), 213–233.

6 Swarbrooke, J. (1999). Sustainable Tourism Management. UK: CABI Publishing.
Frey, N., & George, R. (2010). Responsible Tourism Management: The Missing Link Between Business Owners' Attitude and Behavior in the Cape Town Tourism Industry. Tourism Management, 31(5), 621–628.
Wijk, J., & Persoon, W. (2006). A Long-Haul Destination: Sustainable Reporting Among Tour Operators. European Management Journal, 24(6), 381–395.
Khairat, G., & Maher, A. (2012). Integrating Sustainability into Tour Operator Business: An Innovative Approach in Sustainable Tourism. Tourismos, 7(1), 213–233.

7 Sigala, M. (2008). A study chain management approach for investigating: The role of tour operators on sustainable tourism the case of TUI. Journal of Cleaner Products, Vol. 16, No.15, pp.1589-1599.

8 Mamadaliyev U. Oʻzbekistonda turoperatorlik foaliyatining rivojlanish holati //University research base. – 2024. – c. 528-531.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida turoperatorlik faoliyatini oʻrganishda ilmiy yondashuvlar va tizimli metodlardan foydalanildi. Nazariy-tahliliy yondashuv asosida turoperatorlik faoliyatiga oid xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, tegishli qonunchilik hujjatlari, strategik dasturlar hamda ilmiy maqolalar chuqur tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli orqali Oʻzbekiston turoperatorlik bozorining hozirgi holati Turkiya, Rossiya va Malayziya kabi xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirilib, ularning oʻxshashlik va farqli jihatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, 2018–2024-yillar oraligʻida Oʻzbekistonda turizm xizmatlari hajmi, hududlar kesimidagi tashrif buyuruvchilar soni hamda turoperatorlik faoliyatiga doir rasmiy statistik maʼlumotlar oʻrganilib, tizimli yondashuv asosida tahlil etildi. Turoperatorlik faoliyati turizm qiymat zanjiri doirasida kompleks tarzda koʻrib chiqildi, yaʼni xizmat ishlab chiqaruvchilar, transport-logistika tizimi, marketing mexanizmlari, risklarni boshqarish jarayonlari va isteʼmolchilar ehtiyojlari oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm biznesi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida uning asoschisi sifatida haqli ravishda ingliz sayyoh tashkilotchisi Tomas Kuk tan olingan. Oʻsha davrda aholining sayohat jarayonida uchrashi mumkin boʻlgan turli tashkiliy qiyinchiliklardan choʻchishi sababli, ular barcha tashkiliy masʼuliyatni oʻz zimmasiga oluvchi firmalarga – turoperator yoki turagentlarga – murojaat qilishni maʼqul koʻrgan. XIX asrda mustaqil sayohatni tashkil etish uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar manbalarining cheklanganligi ham ushbu ehtiyojni yanada kuchaytirgan.

XX asr davomida turoperatorlik faoliyati jamiyatda insonlarning didi, tanlovi, qarashlari va talablari oʻzgarishi hamda texnologik yangilanishlarning jadallashuvi bilan mos ravishda rivojlanib bordi. Soʻnggi besh–oʻn yillikda Yevropada turoperatorlar xalqaro sayohatlarning asosiy[9] tashkilotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi va turistik oqimlarni shakllantirishda muhim rol oʻynadi[10].

Shu bilan birga, turoperatorlar turizm sohasidagi asosiy axborot manbai va taqsimot kanallari sifatida ham yuqori ahamiyatga ega boʻlib, isteʼmolchilarni turistik xizmatlar boʻyicha zarur maʼlumotlar bilan taʼminlab kelmoqda[11].

1945-yilda Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasining (IATA) tashkil etilishi havo transporti xizmatlarini standartlashtirish jarayoniga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Mazkur tashkilot aviakompaniyalar oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirib, ularning yanada samarali faoliyat yuritishini taʼminladi. Natijada, turoperatorlar bir vaqtning oʻzida bir nechta aviakompaniyalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega boʻlib, turistik sayohatlarni tartibli, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul shaklda tashkil etish jarayonlarini yanada takomillashtirdi. Bu esa sayyohlarning turli destinatsiyalarga qulay, ishonchli va nisbatan arzon narxlarda yetib borishini taʼminlagan omillardan biri boʻldi.

Ushbu tadqiqot doirasida turoperatorlik faoliyatiga oid ilgari oʻtkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi va asosiy natijalar 1-jadvalda sistematik tarzda umumlashtirib berildi (1-jadval).

1-jadval. Turoperatorlik faoliyatiga oid eʼtiborga molik tadqiqotlar tahlili[12]

| T/r | Mualliflar | Tadqiqot ishi / tadqiqot e'lon qilingan yili | Tadqiqot metodologiyasi |
|---|---|---|---|
| 1 | S. Carey, Y. Gountas, D. Gilbert.[13] | *Tour Operators and Destination Sustainability.* **1997-yil.** | Buyuk Britaniyaning eng yirik 30 ta turoperatoridan namunaviy ravishda tanlab olingan 9 ta kompaniya bilan soʻrovnomalar oʻtkazilib, ularning barqarorlikka doir yondashuvlari tahlil qilingan. |
| 2 | **S. Curtin, G. Busby.**[14] | *Sustainable Destination Development: The Tour Operator Perspective.* **1999-yil.** | Turistik destinatsiyalarni rivojlantirishning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taʼsirlariga oid ilgari nashr etilgan ilmiy adabiyotlar hamda soha mutaxassislarining fikrlari tizimli tahlil qilingan. |

9 Hebestreit, D. (1992). Touristik Marketing: Grundlagen, Ziele, Basis-Informationen, Instrumentarien, Strategien, Organisation und Planung des Marketings von Reiseveranstaltern. 3. Auflage. Berlin: Arno Spitz.
10 Koutoulas, D. (2006). The Market Influence of Tour Operators on the Hospitality Industry: The Case of Greek Resort Hotels. In Papatheodorou, A. (Ed.), Corporate Rivalry and Market Power: Competition Issues in the Tourism Industry (pp. 94–123). London: I.B. Tauris Publishers.
11 Mottiar, Z., Boluk, K., & Kline, C. (2018). The Roles of Social Entrepreneurs in Rural Destination Development. Annals of Tourism Research, 68, 77–88. Christou, P., Farmaki, A., & Evangelou, G. (2018). Nurturing Nostalgia? A Response from Rural Tourism Stakeholders. Tourism Management, 69, 42–51. Trunfio, M., Petruzzellis, L., & Nigro, C. (2006). Tour Operators and Alternative Tourism in Italy: Exploiting Niche Markets to Increase International Competitiveness. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 18(5), 426–438.
12 Adabiyotlarni oʻrganish natijasida muallif ishlanmasi
13 Carey, S., Gountas, Y., & Gilbert, D. (1997). Tour Operators and Destination Sustainability. Tourism Management, 18(7), 425–431.
14 Curtin, S., & Busby, G. (1999). Sustainable Destination Development: The Tour Operator Perspective. International Journal of Tourism Research, 1(2), 135–147.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | R. Tapper.[15] | *Tourism and Socio-Economic Development: UK Tour Operators' Business Approaches in the Context of the New International Agenda.* **2001-yil.** | Asosan hujjatlar tahlili va amaliy intervyular asosida ma'lumotlar yig'ilgan hamda Buyuk Britaniya turoperatorlarining yangi global kun tartibi sharoitidagi yondashuvlari o'rganilgan. |
| 4 | B. Higgins.[16] | *Tour Operators.* **2001-yil.** | Ekoturizm turoperatorlari faoliyatining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan, barqaror ekoturistik mahsulotlarni shakllantirish jarayonlari yoritilgan. |
| 5 | M. Rønningen.[17]. | *Innovative Processes in a Nature-Based Tourism Case: The Role of a Tour Operator as the Driver of Innovation.* **2010-yil.** | Mahsulot va xizmatlarni taklif etuvchi 12 ta firmani qamrab olgan keys-stadiy asosida olingan empirik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan; turoperatorning innovatsion jarayonlardagi roli ochib berilgan. |
| 6 | J. Baddeley, X. Font.[18] | *Barriers to Tour Operator Sustainable Supply Chain Management.* **2011-yil.** | Delphi usulida so'rovnoma tuzilib tarqatilgan, mos respondentlar bilan intervyular o'tkazilgan, keyingi bosqichda stol tadqiqoti (desk research) bajarilgan va yakuniy ma'lumotlar barqaror ta'minot zanjiriga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida tahlil qilingan. |
| 7 | X. Guo, L. He.[19] | *Tourism Supply-Chain Coordination: The Cooperation Between Tourism Hotel and Tour Operator.* **2012-yil.** | Turpaketlarga bo'lgan talabga narxlar va imtiyozlarning ta'siri iqtisodiy modellar asosida tahlil qilingan; turoperator–mehmonxona o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligi o'rganilgan. |
| 8 | R. Kumar, M. Kumar.[20]. | *Corporate Social Responsibility in the Indian Tour Operation Industry.* **2018-yil.** | Hindiston turoperatorlik sanoatida korporativ ijtimoiy mas'uliyatning qo'llanilishi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilingan, sohadagi asosiy tamoyillar va tendensiyalar aniqlangan. |

Shuningdek, xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida J. Holloway, D. Koutoulas, A. Papatheodourou, P. Tsartas, A. Marin-Pantelescu, S. Swain, J. Mishra, T.S. Devaraja, K. Deepak, K. Bricker, R. Black, D.B. Demeuova, K. Pompurova, L. Sebova, P. Scholz, M. Zahari, M. Bashir, M. Hanafiah, P. Kaewmorakot, N. Pianroj va P. Chaiyakot singari tadqiqotchilar tomonidan "turoperatorlik" tushunchasiga berilgan bir qator ta'riflar, ilmiy yondashuvlar va konseptual qarashlar mavjudligi aniqlangan. Mazkur mualliflarning ilmiy izoh va ta'riflari 2-jadvalda tizimli ravishda keltirilgan (2-jadval).

15 Tapper R. Tourism and socio-economic development: UK tour operators' business approaches in the context of the new international agenda //International Journal of Tourism Research. – 2001. – T. 3. – №. 5. – C. 351-366.
16 Higgins B. R. Tour operators. – 2001.
17 Rønningen M. Innovative processes in a nature based tourism case: The role of a tour operator as the driver of innovation // Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism. – 2010. – T. 10. – №. 3. – C. 190-206.
18 Baddeley J., Font X. Barriers to tour operator sustainable supply chain management //Tourism recreation research. – 2011. – T. 36. – №. 3. – C. 205-214.
19 Guo X., He L. Tourism supply-chain coordination: The cooperation between tourism hotel and tour operator //Tourism Economics. – 2012. – T. 18. – №. 6. – C. 1361-1376.
20 Kumar R. B., Kumar M. Corporate social responsibility in Indian tour operation industry //International Journal of Hospitality and Tourism Systems. – 2018. – T. 11. – №. 2. – C. 82-88.

2-jadval. Turoperatorlik tushunchasiga berilgan ta’riflar va yondashuvlar[21]

| T/r | Olimlar | Yili | Yondashuvlar | Ta’rif |
|---|---|---|---|---|
| 1 | J. Holloway. [22] | 1987-yil. | Klassik ishlab chiqaruvchi yondashuvi. | Turoperator turistik mahsulotni ishlab chiqaruvchi subyekt hisoblanadi va ushbu mahsulot o‘z tabiatiga ko‘ra uning alohida tarkibiy qismlaridan farq qiladi. Turoperatorlarning ikki asosiy turi mavjud: ommaviy bozorga yo‘naltirilgan turoperatorlar va ixtisoslashgan turoperatorlar. |
| 2 | D. Koutoulas, A. Papatheodourou, P. Tsartas. | 2009-yil | Ishlab chiqaruvchi–distribyutor yondashuvi. | Turoperatorlar ishlab chiqaruvchi sifatida, ya’ni xizmatlarning alohida tarkibiy qismlarini birlashtirib yagona turistik mahsulot — umumiy narxda taklif etiladigan kompleks tur paketini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular turizm bozorida distribyutor sifatida ham faoliyat yuritadi. |
| 3 | A. Marin-Pantelescu.[23] | 2009-yil | Oldindan xarid qilish yondashuvi. | Turoperatorlar oldindan turli aviakompaniyalardan samolyot chiptalari, mehmonxona xonalari va aeroport–mehmonxona transfer xizmatlarini keng ko‘lamda xarid qilib, keyinchalik ulardan paket xizmatlar shakllantirishda foydalanadi. |
| 4 | S. Swain, J. Mishra[24] | 2012-yil | Qo‘shimcha qiymat yaratish yondashuvi. | Turoperator transport, joylashtirish, ovqatlanish va ko‘ngilochar xizmatlar kabi turli yetkazib beruvchilardan alohida tarkibiy qismlarni xarid qilib, ularga qo‘shimcha qiymat qo‘shgan holda turli turpaketlarni shakllantiradi va ularni o‘zi belgilagan narx asosida sayyohlarga bevosita yoki agentliklar orqali taklif qiladi. |
| 5 | T.S. Devaraja, K. Deepak.[25] | 2014-yil | Integratsion paketlash yondashuvi. | Turoperatorlar transport, turar joy, ovqatlanish, ko‘ngilochar dasturlar va ekskursiyalar kabi ikki yoki undan ortiq sayohat xizmatlarini yagona paketga birlashtirib, uni sayohat agentliklari yoki bevosita yakuniy iste’molchilarga sotadi. |
| 6 | K. Bricker, R. Black.[26] | 2016-yil | Vositachilik va tajribaga asoslangan yondashuv. | Turoperatorlar sayohatchilar bilan ularning turizm tajribasi o‘rtasida vositachi rolini bajaradi. Ular maxsus ishlab chiqilgan turpaketlar, turizm faoliyati turlari va keng ko‘lamli xizmatlar orqali sayyohlarga qulaylik yaratadi. |
| 7 | D.B. Demeuova.[27] | 2022-yil | Ehtiyojga yo‘naltirilgan yondashuv. | Turoperator xizmat ko‘rsatuvchi yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar hamda sayyohlarning ehtiyoj va talablariga muvofiq ravishda turlarni shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi turistik tashkilot sifatida talqin qilinadi. |

21 Adabiyotlarni o‘rganish natijasida muallif ishlanmasi
22 Holloway, J. C. (1987). The Business of Tourism. Pitman Publishing, London.
23 Marin-Pantelescu, A., 2009. Diversificarea și personalizarea serviciilor turistice în contextual globalizării. Bucharest: ASE Publishing
24 Swain, S.K., Mishra, J.M. 2012. Tourism- Principles and Practices. Oxford University Press, New Delhi
25 T.S.Devaraja, K. Deepak. Role of Tour Operator in Sustainable Supply Chain Management of Tourism - A Case Study on Bharath International Travels (Bit) in Mysore City. Volume-3, Issue-8, August-2014 • ISSN No 2277 - 8160
26 Bricker, K S., & Black, R. (2016). Framework for understanding sustainability in the context of tourism operators. Environmental Challenges and Solutions, 81-99. doi:10.1007/978-94-017-7209-9_6
27 Демеуова Б.М. Д30 Туроперейтинг : Курс лекций / Б.М. Демеуова – Алматы : Университет «Туран», 2022. – 55 б.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | K. Pompurova, L. Sebova, P. Scholz.[28] | 2022-yil | Loyihalash va menejment yondashuvi. | Turoperatorlar turizm resurslarini loyihalash, tashkil etish, paketlash, targ‘ib qilish va boshqarish orqali sayyohlarni turizm manzillari bilan bog‘lashda muhim o‘rin tutadi. Ularning iste’molchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va destinatsiyalar rivojlanishiga nisbatan keng qamrovli ta’siri mavjud. |
| 9 | M. Zahari, M. Bashir, M. Hanafiah.[29] | 2023-yil | Ulgurji sotuv va distribyutorlik yondashuvi. | Turoperatorlar turizm sohasidagi turli elementlarni birlashtirib, raqobatbardosh narxda kompleks tur paketini yaratadi. Shu bilan birga, ular mehmonxona xonalari va aviareys o‘rinlarini katta hajmda sotib olib, o‘z turlarini chakana sayohat agentliklari orqali sotish orqali ulgurji sotuvchi vazifasini bajaradi. |
| 10 | P. Kaewmorakot, N. Pianroj, P. Chaiyakot.[30] | 2024-yil | Barqarorlik va mas’uliyatli turizm yondashuvi. | Turoperatorlar barqaror turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, mas’uliyatli turizm konsepsiyasiga bo‘lgan e’tibor ortib borayotgan hozirgi sharoitda turoperatorlarning xizmatlarni shakllantirish, destinatsiyalar bilan ishlash va iste’molchilarda mas’uliyatli sayohat madaniyatini rivojlantirishdagi ta’siri yanada kuchayib bormoqda. |

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan kelib chiqib, turoperatorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillar ijtimoiy mas’uliyat, barqarorlik amaliyotlarining joriy etilishi, ixtiyoriy tashabbuslarning qo‘llab-quvvatlanishi, innovatsion yechimlardan foydalanish, xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish hamda vertikal integratsiyani samarali amalga oshirishdir. Ushbu omillarni tizimli boshqaruv vositalariga aylantirish turoperatorlik subyektlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshiradi (1-rasm).




1-rasm. Turoperatorlik faoliyatining rivojlanish tub asoslari[31]

Turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning global yondashuvlarga ko‘ra asoslari yanada keng qamrovli bo‘lib, turizm sanoatini boshqarishning zamonaviy tamoyillari va strategik yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi (2-rasmga qarang).

28 Pompurová, Kristína; Sebova, Ľubica; Scholz, Petr (2022) : Reimagining the tour operator industry in the post-pandemic period: Is the platform economy a cure or a poison?, Cogent
Business & Management, ISSN 2331-1975, Taylor & Francis, Abingdon, Vol. 9, Iss. 1, pp. 1-16, https://doi.org/10.1080/23311975.2022.2034400

29 Baharum, Baizuri & Mohd Zahari, Mohd Salehuddin & Hanafiah, Mohd & Bashir, Muhammad. (2023). Understanding tour operators' perception and behaviour towards shopping streets: a qualitative perspective. International Journal of Tourism Cities. 9. 10.1108/IJTC-10-2022-0238.

30 P.Kaewmorakot, N.Pianroj, P.Chaiyakot . Exploring responsible tourism management in tour operators. Songklanakarin J. Sci. Technol. 46 (5), 398–405, Sep. – Oct. 2024.

31 Muallif ishlanmasi.

Bozor ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish turistik xizmatlar sohasining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tahlil turistlarning oʻzgarib borayotgan ehtiyojlarini, sayohat davomida namoyon boʻladigan xatti-harakatlarini hamda yangi bozor segmentlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ikki yil avval maʼlum bir destinatsiyada kuzatilgan yuqori ommaviylik holati vaqt oʻtishi bilan pasayishi tabiiy jarayon sanaladi. Aksincha, ilgari turistlar tomonidan yetarlicha baholanmagan ayrim hududlar yangi infratuzilma, xizmatlar sifati yoki bozor tendensiyalari taʼsirida turistik jozibadorlik darajasini keskin oshirishi mumkin. Jumladan, soʻnggi yillarda Jizzax va Namangan viloyatlarining turistik salohiyati rekreatsion resurslar, aktiv turizm turlariga oid infratuzilma kengayishi natijasida sezilarli ravishda ortib, sayyohlar oqimining izchil koʻpayishiga xizmat qilmoqda.

Mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish turoperatorlik faoliyatining raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda klassik ekskursiya marshrutlari bilan bir qatorda ekoturizm, gastronomik turizm, sogʻlomlashtirish turizmi, halol turizmi kabi yoʻnalishlarga talab ortib bormoqda. Shuningdek, avvalgi yillarda Toshkent shahri asosan madaniy meros yodgorliklari hamda poytaxtning transport markazi sifatida koʻplab sayyohlarni jalb etgan boʻlsa, hozirda tunu–kun faoliyat yurituvchi gastronomik koʻchalar, zamonaviy attraksionlar, istirohat bogʻlari va noyob yashil hududlar tarmogʻining rivojlanishi poytaxtning turistik jozibadorligini yanada oshirib, yangi turistik oqimlarni shakllantirmoqda (2-rasm).




2-rasm. Turoperatorlik faoliyatining global rivojlanish asoslari[32]

Raqamli texnologiyalarni joriy etish turizm xizmatlarini modernizatsiya qilishning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar, virtual turlar va sunʼiy intellekt asosidagi funksiyalar orqali xizmatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Xizmat sifati va mijoz tajribasini oshirish esa turoperatorlik faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etib, personallashtirilgan xizmatlar, koʻp tillilikni taʼminlash va xizmat jarayonida qulay muhit yaratishga qaratilgan yondashuvlarni oʻz ichiga oladi.

Narx va sifat muvozanatini taʼminlash raqobatbardosh narx siyosatini shakllantirish bilan birga, qoʻshimcha qiymatga ega boʻlgan xizmatlar paketini taklif etishni talab qiladi. Bu yondashuv turistlar ehtiyojlariga mos mahsulot yaratish orqali bozorda barqaror mavqega ega boʻlishga xizmat qiladi.

Mahalliy hamjamiyat bilan integratsiya turoperatorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omil boʻlib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlar va tadbirkorlar bilan hamkorlik shakllarini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotga qoʻshimcha impuls beradi.

Transport va logistika samaradorligini taʼminlash xavfsiz, qulay, tejamkor va zamonaviy transport yechimlaridan foydalanish orqali sayohat jarayonidagi umumiy xizmat sifatini oshiradi hamda turistlar oqimini barqarorlashtiradi.

32 Muallif ishlanmasi.

Barqaror turizm tamoyillarini qo'llash ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va madaniy merosni asrab-avaylash bilan bog'liq bo'lib, turizmning uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish turoperatorlik subyektlarining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil bo'lib, gidlar, menejerlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini muntazam rivojlantirishni talab qiladi.

Xalqaro hamkorlik va marketing strategiyalarini joriy etish global turizm bozoriga muvaffaqiyatli chiqishning asosiy sharti bo'lib, xorijiy turoperatorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm yarmarkalari va ko'rgazmalarida ishtirok etish hamda raqamli marketing vositalaridan foydalanish turistlar oqimini sezilarli oshirish imkonini yaratadi.

Xorijiy adabiyotlarni o'rganish va mualliflik ilmiy yondashuvlaridan kelib chiqib, "turoperator" tushunchasiga turizm xizmatlari tizimidagi o'rnini aks ettiruvchi konseptual ta'rif ishlab chiqildi. Bizning fikrimizcha, turoperator — turizm xizmatlari tizimida strategik boshqaruv funksiyasini bajaruvchi, bozor talabi, ijtimoiy, madaniy va ekologik omillar, logistika imkoniyatlari va innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirib, potensial mijozlar uchun turistik tajriba yaratish, uni yetkazish hamda rivojlantirishga ixtisoslashgan kompleks xizmat ko'rsatuvchi subyektdir.

Taklif etilayotgan ushbu ta'rif, nazarimizda, turoperatorni nafaqat turizm xizmatlarini integratsiyalovchi bo'g'in, balki bozor tendensiyalarini shakllantiruvchi va barqaror turizm siyosatini amalga oshiruvchi strategik ishtirokchi sifatida ham talqin etadi.

Yuqoridagi konseptual ta'rif mualliflik ilmiy yondashuvlarimizni aks ettirgan bo'lsa-da, iqtisodiy mazmun nuqtayi nazaridan turoperatorlik faoliyatiga yanada amaliyroq yondashuvni ham talab qiladi. Turizm qiymat zanjirining markaziy bo'g'ini sifatida turoperator xarid va sotuv narxlari o'rtasidagi marjani belgilash, risklarni boshqarish hamda daromadlarni optimallashtirish funksiyalarini bajaradi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy nuqtayi nazardan turoperator — turizm bozorida xizmat yetkazib beruvchilar va yakuniy iste'molchilar o'rtasida vositachilik qiluvchi, xizmatlarni to'plam ko'rinishida xarid qilib, ularni qayta paketlab, tijorat qiymatini oshirgan holda realizatsiya etuvchi iqtisodiy subyektdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, barqaror turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi "yetakchi amaliyotlar" turoperatorlarga nafaqat narx omili bo'yicha, balki qo'shimcha sifat ko'rsatkichlari asosida ham yuqori raqobatbardosh sayohat paketlarini shakllantirish imkoniyatini berishi aniqlandi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijasida turoperatorlik faoliyatining olti asosiy rivojlanish omili belgilandi. Ushbu omillar, bizning fikrimizcha, turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning to'laqonli strategik modelini yaratishda metodik tayanch sifatida xizmat qiladi.

Uchinchidan, turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning global yondashuvlarga asoslangan konseptual modeli yanada keng qamrovli ekanligi aniqlanib, u bozor ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmat sifati va mijoz tajribasini rivojlantirish, narx va sifat muvozanatini ta'minlash, mahalliy hamjamiyat bilan integratsiya, transport va logistika samaradorligi, barqaror turizm tamoyillarini qo'llash, kadrlar malakasini oshirish hamda xalqaro hamkorlik va marketingni o'z ichiga olishi bilan tavsiflanadi.

To'rtinchidan, xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda mualliflik ilmiy yondashuvlaridan kelib chiqib, "turoperator" tushunchasiga nisbatan tizimli va konseptual ta'riflar ishlab chiqildi. Ushbu ta'riflarda turoperatorning turizm qiymat zanjiridagi markaziy o'rni, xarid va sotuv narxlari o'rtasidagi marja mexanizmlari, risklarni boshqarish va daromadlarni optimallashtirish kabi iqtisodiy jihatlar ham e'tiborga olindi. Natijada turoperatorning turizm bozori hamda qiymat zanjiri nuqtayi nazaridan yangicha ilmiy talqini shakllantirildi.

Beshinchidan, turoperatorlik faoliyatining metodologik asoslari turizm sanoatining ilmiy, tashkiliy va iqtisodiy yondashuvlarini qamrab oladi. Tadqiqot davomida ushbu metodologik yondashuvlarning eng muhim 10 tasi ajratib olindi va ular turoperatorlik amaliyotini takomillashtirishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega ekani belgilandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Aguiló, E., Alegre, J., & Sard, M. (2003). Examining the market structure of the German and UK tour operating industries through an analysis of package holiday prices. Tourism Economics, 9(3), 255–278.
2. Baddeley, J., & Font, X. (2011). Barriers to tour operator sustainable supply chain management. Tourism Recreation Research, 36(3), 205–214.
3. Baharum, B., Mohd Zahari, M. S., Hanafiah, M., & Bashir, M. (2023). Understanding tour operators' perception and behaviour towards shopping streets: A qualitative perspective. International Journal of Tourism Cities, 9. https://doi.org/10.1108/IJTC-10-2022-0238

4. Bricker, K. S., & Black, R. (2016). Framework for understanding sustainability in the context of tourism operators. Environmental Challenges and Solutions, 81–99.
5. Business & Management (ISSN: 2331-1975). Taylor & Francis, Vol. 9(1), 1–16.
6. Carey, S., Gountas, Y., & Gilbert, D. (1997). Tour operators and destination sustainability. Tourism Management, 18(7), 425–431.
7. Christou, P., Farmaki, A., & Evangelou, G. (2018). Nurturing nostalgia? A response from rural tourism stakeholders. Tourism Management, 69, 42–51.
8. Collins, S., Sweeney, A. E., & Geen, A. G. (1994). Training for the UK tour operating industry: Advancing current practice. Tourism Management, 15(1), 5–8.
9. Curtin, S., & Busby, G. (1999). Sustainable destination development: The tour operator perspective. International Journal of Tourism Research, 1(2), 135–147.
10. Dale, C. (2000). The UK tour-operating industry: A competitive analysis. Journal of Vacation Marketing, 6(4), 357–367.
11. Goffi, G., Masiero, L., & Pencarelli, T. (2018). Rethinking sustainability in the tour-operating industry: Worldwide survey of current attitudes and behaviors. Journal of Cleaner Production, 183, 172–182.
12. Gorbuntsova, T., Dobson, S., & Palmer, N. (2018). Rural entrepreneurial space and identity: A study of local tour operators and indigenous reindeer herders. The International Journal of Entrepreneurship and Innovation, 19(4), 261–272.
13. Guo, X., & He, L. (2012). Tourism supply-chain coordination: The cooperation between tourism hotel and tour operator. Tourism Economics, 18(6), 1361–1376.
14. Hebestreit, D. (1992). Touristik Marketing. 3rd ed. Berlin: Arno Spitz.
15. Higgins, B. R. (2001). Tour Operators.
16. Holloway, J. C. (1987). The Business of Tourism. London: Pitman Publishing.
17. https://doi.org/10.1080/23311975.2022.2034400
18. Ioannides, D. (1998). Tour operators: The gatekeepers of tourism. In The Economic Geography of the Tourist Industry (pp. 155–174). Routledge.
19. Khairat, G., & Maher, A. (2012). Integrating sustainability into tour operator business: An innovative approach in sustainable tourism. Tourismos, 7(1), 213–230.
20. Koutoulas, D. (2006). The market influence of tour operators on the hospitality industry: The case of Greek resort hotels. In Papatheodorou, A. (Ed.), Corporate Rivalry and Market Power. London: I.B. Tauris, 94–123.
21. Koutoulas, D., Tsartas, P., Papatheodorou, A., & Prountzou, E. (2009). Understanding the tour operators' point of view for effectively marketing a tourist destination: The case of Athens. Annals of Tourism Research, 9, 65–77.
22. Kumar, R. B., & Kumar, M. (2018). Corporate social responsibility in the Indian tour operation industry. International Journal of Hospitality and Tourism Systems, 11(2), 82–88.
23. Mamadaliyev, U. (2024). Oʻzbekistonda turoperatorlik faoliyatining rivojlanish holati. University Research Base, 528–531.
24. Marin-Pantelescu, A. (2009). Diversificarea și personalizarea serviciilor turistice în contextual globalizării. Bucharest: ASE Publishing.
25. Market Power: Competition Issues in the Tourism Industry. London: I.B. Tauris.
26. Mottiar, Z., Boluk, K., & Kline, C. (2018). The roles of social entrepreneurs in rural destination development. Annals of Tourism Research, 68, 77–88.
27. Kaewmorakot, P., Pianroj, N., & Chaiyakot, P. (2024). Exploring responsible tourism management in tour operators. Songklanakarin J. Sci. Technol., 46(5), 398–405 (Sep.–Oct. 2024).
28. Pompurová, K., Sebova, Ľ., & Scholz, P. (2022). Reimagining the tour operator industry in the post-pandemic period: Is the platform economy a cure or a poison? Cogent Social Sciences, pp. 381–395.
29. Rønningen, M. (2010). Innovative processes in a nature-based tourism case: The role of a tour-operator as the driver of innovation. Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism, 10(3), 190–206.
30. Sheldon, P. J. (1986). The tour operator industry: An analysis. Annals of Tourism Research, 13(3), 349–365.
31. Sigala, M. (2008). The role of tour operators in sustainable tourism: Case of TUI. Journal of Cleaner Products, 16(15), 1589–1599.
32. Swain, S. K., & Mishra, J. M. (2012). Tourism: Principles and Practices. New Delhi: Oxford University Press.
33. Swarbrooke, J. (1999). Sustainable Tourism Management. CABI Publishing.
34. Frey, N., & George, R. (2010). Responsible tourism management: The missing link between business owners' attitudes and behavior in the Cape Town tourism industry. Tourism Management, 31(5), 621–628.
35. Devaraja, T. S., & Deepak, K. (2014). Role of tour operators in sustainable supply chain management of tourism: A case study on Bharath International Travels (BIT), Mysore City. Global Research Analysis, 3(8), Aug.–2014.
36. Tapper, R. (2001). Tourism and socio-economic development: UK tour operators' business approaches in the new international agenda. International Journal of Tourism Research, 3(5), 351–366.
37. Trunfio, M., Petruzzellis, L., & Nigro, C. (2006). Tour operators and alternative tourism in Italy: Exploiting niche markets to increase international competitiveness. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 18(5), 426–438.
38. Wijk, J., & Persoon, W. (2006). A long-haul destination: Sustainable reporting among tour operators. European Management Journal, 24(6).
39. Ytterhus, B. E. (2000). Supply Chain Management, Intermediary Firms and Sustainable Developments. Norwegian School of Management.
40. Демеуова, Б. М. (2022). Туроперейтинг: Курс лекций. Алматы: Университет «Туран», 55 б.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 12**



© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz